

---

## “YANGI O‘ZBEKISTON ULKAN IMKONIYATLAR VATANI” MAVZUSIDA O‘TKAZILGAN FESTIVAL YOSHLARDA UNUTILMAS TAASSUROTDLAR QOLDIRDI

Toshloq tumanidagi 3-sektor hududida joylashgan 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida “Yangi O‘zbekiston ulkan imkoniyatlar Vatani” mavzusida maktab o‘quvchilari ishtirokida yoshlar festivali bo‘lib o‘tdi. Mamlakatimizda barkamol avlod kamoloti, yoshlarning ta‘lim tarbiya olishlari, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish masalasiga bugun davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. Tumanimiz yoshlari ham berilayotgan imkoniyatlardan keng foydalangan xolda ko‘plab yutuqlarni qo‘lga kiritmoqdalar. Bo‘lib o‘tgan festivalda o‘quvchi yoshlar o‘z yutuqlarini turli xil ko‘rgazmalarda namoyish etdilar. Tadbir davomida “Gullar va qushlar” bayrami, “Tasviriy san‘at”, “Qo‘g‘irchoq teatri” hamda “Badiiy havaskorlik” to‘garagi a‘zolarining ko‘rgazmali chiqishlari barchada katta taassurotlar qoldirdi. Shuningdek, festival doirasida 6-7-sinf o‘quvchi-qizlari ishtirokida kashtachilik ko‘rgazmasi ham namoyish etildi. O‘quvchilar o‘rtasida “Osh tanlovi”, “Zakovat” intellektual o‘yini, sport musobaqalari o‘tkazilib, yakunda yoshlar munosib taqdirlandilar.

2024-04-27 16:55:17